

## Ona tili (majburiy)

#1. To'g'ri fikrni aniqlang.

- A) tobi qochib qolmoq - ibora, g'azal mulkinging sultoni – tasviriy ifoda
- B) tobi qochib qolmoq – eskirgan so'z, g'azal mulkinging sultoni - so'z birikmasi
- C) tobi qochib qolmoq- so'z birikmasi, g'azal mulkinging sultoni - ibora
- D) tobi qochib qolmoq – tasviriy ifoda, g'azal mulkinging sultoni - so'z birikmasi

#2. Qaysi javobdagi so'zlar imlo jihatidan xato yozilgan?

- A) badiylik, taassurot
- B) shijoot, hatti-harakat
- C) borlik, bo'shlik
- D) ovaragarchilik, inqilob

#3. Hamqishloqlarning bu bolaga ichlari achir, Xudo bergan birgina o'g'ilni shunchalik qiynab qo'rganlari uchun uning ota-onasini tanirdilar.

Ushbu gapda necha o'rinda tovush o'zgarishi yuz bergan?

- A) 1 o'rinda
- B) 3 o'rinda
- C) 2 o'rinda
- D) 4 o'rinda

#4. Qaysi javobda keltirilgan so'zlar sinonimlik, ma'nodoshlik hosil qila oladi?

- A) noo'xshash – farq - tafovut
- B) basavlat – sumbat - gavda
- C) turfa - g'alati - ajoyib
- D) o'ch – intiqom - qasoskor

#5. Qaysi gapda “*ma'lum vaqt, fursat uchun yig'ib tayyorlab qo'ymoq*” ma'nosinibildiruvchi so'z ajratilgan?

- A) Kitob sifatli chiqishi uchun yangi testlar tuzish kerak.
- B) Yuklarni ko'chishga tayyorlab qo'ydik.
- C) Bu sohaga oid barcha terminlarni birkitobga jamladim.
- D) Qish uchun o'tin g'amlash kerak hali, bolam

#6. Qaysi gapda “*o'rganmoq*” so'zi “*moslashmoq*” manosida qo'llangan?

- A) Ta'til vaqtida bir g'ayrat qilib rus va arab tillarini o'rganmoqchiman.
- B) Pastroq ilingan doskalarga yozib o'rganib qolibman.
- C) O'lmas birovdan hech shikoyat qilib o'rgangan emas
- D) O'rganishlarimiz shuni ko'rsatadiki, topilma eramizdan oldingi davrga oiddir.

#7. Qaysi javobda chiziqcha bilan yozish qoidasi buzilgan?

- A) 5-sinf
- B) siz-chi?
- C) aka-uka
- D) ertaga-yoq

#8. *Besh qo'lingni og'zingga tiqma.*

Gapda ostiga chizilgan so'zning ma'nosi qaysi usulga ko'chgan?

- A) Metonimiya
- B) Metafora
- C) Sinekdoxa
- D) Kinoya

#9. Qaysi gapda // shartli belgisi o'rnida tire (—) tinish belgisi tushirib qoldirilgan?

- A) Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad // milliy o'zligimizni chuqurroq anglash.
- B) Mening opam ham // talaba, bu yil oliygohga kirdilar.
- C) Bildi ota // foydasizdir kurashmoq.
- D) Ehtimol, sizda ham shunday hollar bo'lgandir // tun yarmidan og'ganda birdan uyg'onib ketasiz.

#10. So'zlarning turkumi ketma-ket to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

Hozir ham hech kim uning ismini aytmaydi.

- A) ravish, bog'lovchi, ravish, olmosh, fe'l
- B) ravish, yuklama, ravish, olmosh, ot, ot
- C) ravish, yuklama, olmosh, olmosh, ot, fe'l
- D) olmosh, yuklama, olmosh, olmosh, ot, fe'l